Global iqtisodiyotda raqobatning ortishi, xalqaro savdo munosabatlarining murakkablashuvi va geoiqtisodiy jarayonlarning jadallashuvi eksport qiluvchi davlatlardan tashqi bozorlarga chiqishda faol, moslashuvchan va maqsadli strategiyalarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun eksportni diversifikatsiya qilish — ya'ni mahsulotlar, tarmoqlar va geografik bozorlarni kengaytirish — iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Eksport jarayonida diversifikatsiyani qo'llab-quvvatlashda moliyaviy rag'batlar alohida ahamiyatga ega. Moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar eksportchilar uchun xarajatlarni kamaytiradi, risklarni pasaytiradi va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekiston tajribasi so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda sezilarli o'zgarishlar va ijobiy natijalar bilan ajralib turadi.[1, 495–511; 3, 295–315; 5, 1–25]

Eksport tarkibining yetarli diversifikatsiya qilinmagani, ayrim tarmoqlarga haddan tashqari bog'liqlik va geografik bozorlar bo'yicha cheklanganlik iqtisodiy risklarni oshirishi mumkin. Shu bois diversifikatsiya quyidagi sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega:

- valyuta tushumining barqarorligini ta'minlash;
- xalqaro bozorlar kon'yunkturasiga moslashuvchanlikni kuchaytirish;
- ichki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirish.

Moliyaviy rag'batlar ushbu jarayonni tezlashtiruvchi strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan eksportchi korxonalar, ularning eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish jarayoni hamda mazkur jarayonni qo'llab-quvvatlaydigan moliyaviy rag'batlar tizimi o'rganilgan.

Tadqiqot quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- eksportchilarga taqdim etiladigan moliyaviy imtiyozlar — subsidiyalar, grantlar, kreditlar, foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish va eksport sug'urtasi;
- eksport geografiyasining kengayishi va bozorlarning diversifikatsiya darajasi;



- moliya mexanizmlarining eksport hajmi, mahsulot raqobatbardoshligi va yangi bozorlarni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri;
- eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati va uning samaradorligi.

Shu tariqa obyekt sifatida eksport faoliyatining moliyaviy infratuzilmasi, ushbu tizim orqali shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar va ularning natijalari tahlil qilingan. Eksportning moliyaviy infratuzilmasi mamlakat tashqi iqtisodiyotining asosiy tayanch mexanizmlaridan biri bo'lib, undagi banklar, sug'urta kompaniyalari, davlat fondlari va moliya bozorlari o'zaro uyg'un faoliyat yuritgan taqdirda eksport salohiyatini sezilarli kengaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport bozorlari diversifikatsiyasi va moliyaviy rag'batlar o'zaro bog'liqligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar oxirgi yillarda sezilarli darajada kengaygan. Amurgo-Pacheco (2010) rivojlanayotgan mamlakatlar misolida eksport savatining geografik va tovar diversifikatsiyasi iqtisodiy o'sishning barqaror determinantlaridan biri ekanini empirik ravishda asoslab bergan. Shu yondashuv doirasida Wu (2022) moliyaviy sektor rivojlanganligi va eksport natijalari o'rtasida kuchli integratsion ta'sir mavjudligini, xususan, kreditga kirish imkoniyatlari kengayishi korxonalar uchun yangi bozorlarni o'zlashtirish ehtimolini oshirishini aniqlagan.[1, 2, 3, 4, 7, 9, 11]

Altowaim (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa resurslarga boy davlatlarda eksport diversifikatsiyasi moliyaviy intermediyasiya darajasiga bevosita bog'liqligi panel ma'lumotlar asosida tasdiqlangan. Shu bilan birga, ayrim ilmiy manbalarda moliyaviy subsidiyalari to'g'ri maqsadli yo'naltirilmaganda ularning samaradorligi pasayishi mumkinligi qayd etiladi.[2, 219–232]

Xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eksportni rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarning samaradorligi mamlakatning institutsional sifati, byudjet yuklamasi darajasi, korxonalar segmentlarining heterogenligi va siyosatning maqsadli yo'naltirilganligiga bevosita bog'liq. O'zbekiston sharoitida ushbu omillarni milliy iqtisodiyot xususiyatlaridan kelib chiqib moslashtirish, takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy obyektini O'zbekiston Respublikasida eksport bozorlari diversifikatsiyasini ta'minlash jarayonida qo'llanilayotgan moliyaviy rag'batlar tizimi, shuningdek eksport faoliyatida ishtirok etuvchi korxonalar, davlat tashkilotlari va moliyaviy institutlarning ushbu jarayondagi o'rni va mexanizmlari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti esa eksport bozorlari diversifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy rag'batlar mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi hamda ularning eksportchilar faoliyatidagi amaliy o'rnidan iboratdir.

Mazkur infratuzilma eksportchi korxonalarni moliyaviy risklardan himoya qiladi, ularni kredit va sug'urta bilan ta'minlaydi hamda xalqaro bozorlarga chiqishni osonlashtiradi.

Eksportni qo'llab-quvvatlash siyosati bo'yicha normativ hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 21-oktabr kuni "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish to'g'risida"gi Farmonni imzolagan. Mazkur Farmonga muvofiq eksportchilar eksportoldi moliyalashtirish, jumladan aylanma mablag'lar bo'yicha quyidagi qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali yordam olishi mumkin:

1. Kompensatsiya mexanizmi:

- kredit bo'yicha foiz xarajatlarining 50 foizigacha,
- lekin milliy valyutadagi kreditlarda — 10 foiz punktdan oshmagan,
- xorijiy valyutadagi kreditlarda — 5 foiz punktdan oshmagan miqdorda.

2. Kafolat mexanizmi:

- kredit summasining 50 foizigacha,
- maksimal limit — 8 milliard so'm,
- kafolat komissiyasi miqdori ikki baravar kamaytirilgan.

Ushbu kompensatsiya va kafolatlar yangi ajratiladigan kreditlarga tatbiq etiladi va ijobiy kredit tarixiga ega eksportchilar uchun qo'llaniladi. Farmonda ko'rsatilgan moliyaviy yordam choralari 2021-yil oxirigacha amal qilishi belgilangan. 2022-yil 1-yanvardan boshlab esa eksportchilar faoliyatiga nisbatan avvalgi tartib qayta qo'llaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksportchilar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonda eksportni moliyalashtirish bo'yicha 2018–2019-yillarda qabul qilingan qarorlar, jumladan Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi orqali quyidagi imtiyozlar joriy etilgan:



1. Kreditlar

Eksport va eksportdoli moliyalashtirish uchun kreditlar (aylanma mablag'lar, savdo operatsiyalari, pre-export kreditlari) ajratila boshlandi.

2. Foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish

Davlat tomonidan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarning Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan oshgan qismi, lekin 10 foiz punktdan ortmagan miqdori kompensatsiya qilinadi.

3. Kafolatlar (garov ta'minoti)

Agar korxonada yetarli garov bo'lmasa, davlat jamg'armasi kredit summasining 50 foizigacha, masalan 4 milliard so'mgacha, kafillik berishi mumkin.

4. 2020-yil 21-oktabrdagi Farmon asosidagi qo'llab-quvvatlash

- milliy valyutada — 10 foiz punktgacha;
- xorijiy valyutada — 5 foiz punktgacha foiz xarajatlarni qoplash;
- kreditlar uchun maksimal 8 milliard so'm miqdorida kafillik berish.

Imtiyoz turi	Mazmuni (qisqa)	Kimlar uchun	Asosiy shartlar/limitlar	Mas'ul tashkilot
Pre-export kreditlar	Eksport uchun aylanma mablag'larni moliyalashtirish	Ishlab chiqaruvchilar, eksportchilar	Foiz stavkasi kompensatsiyasi mavjud	Tadbirkorlik jamg'armasi
Eksport kreditlari	Tayyor mahsulotni tashqi bozorda sotish uchun kredit	Eksport kompaniyalari	50% gacha kafillik	TJ Jamg'arma, banklar
Foiz xarajatlari kompensatsiyasi	Kredit foizining bir qismini qoplab berish	Kredit olgan eksportchilar	Milliy valuta – 10% gacha; valuta – 5% gacha	Eksport agentligi
Davlat kafilligi (garov yetishmasa)	Kreditning 50% gacha qismini kafolatlash	Kichik va o'rta eksportchilar	4–8 mlrd so'mgacha	Tadbirkorlik jamg'armasi
Eksport sug'urtasi	Eksport operatsiyalari risklarini sug'urtalash	Eksport qiluvchilar	Tarif riskga qarab belgilanadi	Uzbekinvest, Eksport agentligi
Sug'urta mukofoti kompensatsiyasi	Eksport sug'urtasi mukofotini davlat qoplaydi	Eksportchilar	Mukofot summasi bo'yicha cheklovlar mavjud	Eksport agentligi
Sertifikatlash xarajatlari kompensatsiyasi	Xalqaro standartlar, laboratoriya tahlillari	Eksportga chiqmoqchi bo'lgan korxonalar	Limit belgilanadi	Texnik reglament agentligi
Marketing va reklama xarajatlari	Reklama, katalog, onlayn platforma xarajatlarni qoplash	Eksportchilar	Me'yor bo'yicha kompensatsiya	Eksport agentligi
Ko'rgazma xarajatlari kompensatsiyasi	Xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish xarajatlarni kamaytirish	Eksportyorlar	Limitlar asosida	Eksport agentligi
Grantlar	Innovatsion loyihalariga quvvatlash	IT, startap, ishlab chiqarish	Tanlov asosida	Innovatsion rivojlanish agentligi

1-rasm. Eksportchilar uchun moliyaviy rag'batlar va ularning qo'llanish shartlari

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma — bu tashqi bozorlarga mahsulot chiqarish jarayonini moliyaviy jihatdan ta'minlab beruvchi tashkilotlar, vositalar va mexanizmlar majmuasidir. Mazkur infratuzilmaning tarkibiga tijorat banklari, eksport kredit agentliklari, sug'urta kompaniyalari, shuningdek logistika va bojxona infratuzilmalari kiradi.



O'zbekiston tijorat banklari so'nggi yillarda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni joriy etmoqda. Ularni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. Eksportdan oldingi moliyalashtirish (Pre-export financing)

Banklar eksportchi korxonalarga ishlab chiqarish jarayonini boshlash yoki kengaytirish uchun kreditlar ajratadi. Ushbu kreditlar, asosan, quyidagi xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi:

- xomashyo xaridi;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- tayyor mahsulot shakllantirish jarayonlari.

Hozirda Ipoteka-bank, Asakabank, Agrobank va Qishloq qurilish bank eksportchilar uchun maxsus kredit liniyalarini taklif qilmoqda.

Quyida O'zbekiston banklarining eksportni moliyalashtirish bo'yicha to'rt asosiy yo'nalishi — arzon kreditlar, akkreditiv va kafolatlar, valyuta risklarini boshqarish, sug'urta va xalqaro kredit liniyalarining ishlash mexanizmi, amaliy qo'llanilishi va natijalari keng yoritiladi.

Ipoteka-bankning korporativ va savdo-moliyalashtirish bo'limlari orqali tashqi savdoni moliyalashtirish (trade financing) va eksportoldi kreditlari bo'yicha standart moliyaviy mahsulotlar taqdim etiladi. Shuningdek, eksportchi korxonalarni Eksportni rag'batlantirish agentligi mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud.

2025-yilda bank xalqaro kapital bozorlarida aktivlarni muvaffaqiyatli diversifikatsiya qilgan (jumladan, xorijiy obligatsiyalarni joylashtirish orqali). Ushbu jarayon bankning likvidligini oshirib, korporativ kreditlash, ayniqsa eksport loyihalarini moliyalashtirish uchun qo'shimcha resurslar yaratdi. Natijada eksportni moliyalashtirish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Asakabankning eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari

Asakabank rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, bank Pre-export financing mahsulotini joriy qilgan bo'lib, korporativ mijozlarga 12 oygacha muddatli eksportoldi kreditlar taklif etadi. Bankning 2025-yildagi strategiyasida yangi kredit mahsulotlarini tasdiqlash, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu esa eksport bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar uchun aylanma mablag'larni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada Asakabank tomonidan taklif etilayotgan pre-export kreditlari eksportchilarga mavsumiy xarajatlarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va tashqi bozorlar talabiga moslashishda qo'shimcha imkoniyat yaratmoqda. [6, 11, 12]

Akkreditivlar va bank kafolatlarining eksportni moliyalashtirishdagi o'rni

Akkreditivlar (Letter of Credit, L/C) va bank kafolatlari xalqaro savdo amaliyotida keng qo'llaniladigan trade finance vositalari bo'lib, eksport-import operatsiyalarida to'lov xavfini kamaytirish hamda shartnoma shartlarini bajarilishini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Akkreditiv — xaridorning banki (issuing bank) tomonidan sotuvchi (beneficiary) manfaatlarini uchun taqdim etiladigan, L/C shartlariga mos hujjatlar taqdim etilganda to'lovni amalga oshirish majburiyatini o'z ichiga olgan rasmiy bank hujjatidir. Xalqaro amaliyotda UCP 600 qoidalari ushbu jarayonning asosiy normativ mezonini sifatida qo'llaniladi.

Akkreditivlar eksportchi uchun to'lov xavfini sezilarli kamaytiradi, chunki hujjatlar to'liq mos bo'lganda bank to'lovni amalga oshiradi. Importyor uchun esa tovar yetkazilgandan so'ng yoki shartnoma shartlariga muvofiq to'lovni amalga oshirish imkonini beradi. O'zbekistonda tijorat banklari ushbu xizmatlarni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda taklif etmoqda.

Akkreditivlarning asosiy turlari

- Revocable / Irrevocable. Amaliyotda O'zbekiston banklari va xalqaro hamkorlar tomonidan, odatda, irrevocable L/C qo'llaniladi. Bunday akkreditiv faqat barcha tomonlar roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.
- Confirmed L/C (tasdiqlangan). Issuing bank kafolatiga qo'shimcha ravishda confirming bank kafolati mavjud bo'lganligi sababli eksportchi uchun yanada yuqori himoya ta'minlaydi. Yangi yoki yuqori tavakkalchilikka ega bozorlar uchun tavsiya etiladi.
- Sight / Usance (Deferred Payment). Tegishli ravishda darhol to'lov yoki belgilangan muddatdan so'ng amalga oshiriladigan to'lov shakllari.
- Transferable / Revolving / Back-to-back. Maxsus shartli akkreditivlar bo'lib, dilerlik zanjirlari yoki qayta ishlovchi eksport operatsiyalarida qo'llaniladi.
- Standby L/C. Asosan kafolat vazifasini bajaradi va ko'p hollarda bank kafolati sifatida ishlatiladi.

Akkreditivlar va bank kafolatlari O'zbekistonda eksportni moliyalashtirishning asosiy trade finance vositalari hisoblanadi. Ular eksportchi uchun to'lov xavfini kamaytiradi, importyor uchun esa shartnoma shartlarining bajarilishini kafolatlaydi. Mahalliy banklar — Asakabank, Ipoteka-bank, Agrobank va boshqa tijorat banklari — UCP 600 talablariga mos ravishda akkreditiv va kafolat mahsulotlarini taklif etib, ularni pre-export va post-export moliyalashtirish mahsulotlari bilan integratsiya qilgan. Amaliy jihatdan eksportchi uchun L/C shartlarini aniq



belgilash, confirming bank xizmatlarini ko'rib chiqish va hujjatlarni sifatli tayyorlash muhim omil hisoblanadi. [9, 12, 13]

Natijalar ishonchligini oshirish maqsadida bir qator robustness tekshiruvlari o'tkazildi. Ushbu tekshiruvlar quyidagilardan iborat:

1. Diversifikatsiya darajasini baholashda Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) o'rniga Theil indeksi qo'llanildi.

2. Moliyaviy rag'batlarning vaqt bo'yicha sezgirligini baholash uchun rag'batlar ikki yillik kechikish bilan modelga kiritildi.

3. Tarmoqlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida sanoat bo'yicha heterogen ta'sir tahlili (agro, kimyo, yengil sanoat, IT sektori) o'tkazildi.

2025-yilda bank tizimining eksportni moliyalashtirishdagi roli

Umuman olganda, 2025-yilda eksportni moliyalashtirish bo'yicha bank tizimi quyidagi natijalarga erishdi:

- eksportchi korxonalarni sifatli moliyaviy resurslar bilan ta'minladi;
- eksport risklarini kamaytirdi;
- iqtisodiyotga valyuta tushumini oshirdi;
- eksport geografiasining kengayishi va diversifikatsiylanishiga sharoit yaratdi;
- tashqi bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirdi;
- kichik va o'rta biznesning eksport zanjiridagi ulushini oshirdi.

Natijada banklarning faol moliyaviy qo'llovi mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlab, tashqi savdo siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish strategiyasiga sezilarli hissa qo'shdi.

Byudjet samaradorligi (Cost-effectiveness) tahlili

Moliyaviy rag'batlarning fiskal samaradorligini baholashda davlat xarajatlari va qo'shimcha eksport hajmi o'rtasidagi nisbat hisoblab chiqildi. Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- 1 milliard so'mlik foiz kompensatsiyasi o'rtacha 3,2 milliard so'mlik qo'shimcha eksportni shakllantiradi;
- kafolatlar bo'yicha koeffitsient 1,8 ga teng;
- eksport sug'urtasi bo'yicha ushbu ko'rsatkich 2,4 miqdorida qayd etildi.

Mazkur natijalar moliyaviy rag'batlarning fiskal samaradorligi yuqori ekanini tasdiqlaydi. [16]

Tadqiqot cheklovlari (Limitations)

Ushbu tadqiqot bir qator cheklovlarga ega bo'lib, natijalarni talqin qilishda ularni hisobga olish muhimdir:

- Ma'lumotlar bazasining qamrovi cheklanganligi sababli ayrim korxonalar bo'yicha rasmiy hisobotlar to'liq taqdim etilmagan, bu esa kuzatishlar sonining kamayishiga olib kelgan.
- Moliyaviy rag'batlarning uzoq muddatli ta'siri monitoring davri bilan chegaralangan.
- Kelgusidagi tadqiqotlarda kengroq vaqt oralig'i, mahsulot liniyalari kesimi va firmalar o'rtasidagi farqlarni inobatga olgan holda yanada chuqur tahlil o'tkazish imkoniyatlari mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot eksport bozorlari diversifikatsiyasida moliyaviy rag'batlarning ahamiyatini nazariy va empirik asoslar orqali chuqur yoritib, O'zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligini kompleks tarzda tahlil qilib berdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, foiz stavkalarini subsidiyalash, kredit kafolatlari hamda eksport sug'urtasi kabi moliyaviy instrumentlar korxonalar uchun mavjud moliyaviy risklarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, mazkur vositalar eksportchilarning yangi geografik yo'nalishlarga chiqishi, mahsulot liniyalarini kengaytirishi hamda tashqi bozorlardagi o'zgaruvchan talabga moslashuvchanligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari xalqaro adabiyotlarda (Amurgo-Pacheco, Altowaim, Agosin va boshqalar) ilgari surilgan fundamental xulosalarni amaliy jihatdan tasdiqladi: eksport diversifikatsiyasi moliyaviy imkoniyatlarning mavjudligi, risklarni sug'urtalash darajasi va kredit resurslariga kirish imkoniyati bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakat miqyosida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar eksportchi korxonalarning tashqi bozorga chiqish samaradorligini oshirgan bo'lsa-da, tarmoqlar kesimida heterogenlik saqlanib qolayotgani aniqlandi. Xususan, yuqori qo'shimcha qiymatga ega tarmoqlar moliyaviy rag'batlardan samaraliroq foydalanayotgan bo'lsa, resursga asoslangan tarmoqlarda ushbu ta'sir nisbatan pastroq qayd etiladi. Bu holat siyosiy mexanizmlarga universallik emas, balki maqsadli va segmentlashtirilgan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy rag'batlarning fiskal samaradorligini baholash natijalari ushbu mexanizmlarning davlat byudjeti uchun maqbulligini tasdiqlaydi. Rag'batlarning o'sishga qo'shgan hissasi xarajatlar bilan solishtirilganda yuqori darajada ijobiy koeffitsientlarni shakllantirgani, mavjud instrumentlar to'g'ri maqsadli yo'naltirilganda iqtisodiy rentabellik sezilarli oshishini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish



jarayonida monitoring va baholash tizimining samaradorligi, shuningdek ma'lumotlar bazasining to'liqligi ham hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijalari moliyaviy rag'batlarning eksport diversifikatsiyasidagi strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatdi. Moliyaviy instrumentlar, jumladan subsidiyalari, kredit kafolatlari va eksport sug'urtasi korxonalar uchun risklarni kamaytirib, ularning tashqi bozorlarga chiqish tezligini sezilarli oshiradi. Bundan tashqari, maqsadli yo'naltirilgan rag'batlar universal dasturlarga nisbatan samaraliroq bo'lib, ayniqsa kichik va o'rta biznes segmenti hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarda yuqori natijadorlik bilan ajralib turadi. Eksport geografiyasi va mahsulot nomenklaturasining kengayishi mamlakat tashqi savdo barqarorligini mustahkamlab, iqtisodiy tebranishlarga nisbatan chidamlilikni oshiradi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Rag'batlarning fiskal yukini samarali nazorat qilish uchun monitoring, baholash va shaffof hisobot mexanizmlarini kuchaytirish kelajakdagi eksport siyosati muvaffaqiyatining muhim omilidir. Davlat siyosati doirasida rag'batlarni yuqori eksport potensialiga ega tarmoqlarga yo'naltirish, eksport kredit agentligi faoliyatini kengaytirish, eksport sug'urtasini soddalashtirish va korxonalar uchun moliyaviy vositalarga kirish imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot o'z oldiga qo'yilgan ilmiy vazifalarni to'liq bajarib, moliyaviy rag'batlarning eksport diversifikatsiyasiga ta'sir mexanizmini nazariy, empirik va amaliy jihatdan asoslab berdi. Shu bilan birga, kelgusida tahlillarni yanada chuqurlashtirish uchun korxona darajasidagi mikroma'lumotlar bazasini kengaytirish, tarmoqlar kesimida chegaraviy samaradorlikni o'lchash va rag'batlarning uzoq muddatli ta'sirini baholash bo'yicha yangi ilmiy yo'nalishlarni shakllantirish zarurligi aniqlangan. Umuman olganda, moliyaviy rag'batlar O'zbekistonning eksport salohiyatini kengaytirish, diversifikatsiyani kuchaytirish hamda iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan mexanizm sifatida shakllanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amurgo-Pacheco, A., & Pierola, M. D. (2010). Patterns of export diversification in developing countries: Intensive and extensive margins. *The World Bank Economic Review*, 24(3), 495–511.
2. Altowaim, S. (2016). Financial development and export diversification in resource-rich developing countries. *Economic Modelling*, 57, 219–232.
3. Agosin, M., Alvarez, R., & Bravo-Ortega, C. (2012). Determinants of export diversification around the world (1962–2000). *The World Economy*, 35(3), 295–315.
4. Cadot, O., Carrère, C., & Strauss-Kahn, V. (2011). Export diversification: What's behind the hump? *Review of Economics and Statistics*, 93(2), 590–605.
5. Hausmann, R., Hwang, J., & Rodrik, J. (2007). What you export matters. *Journal of Economic Growth*, 12(1), 1–25.
6. Naudé, W. (2010). Industrial policy: Old and new issues. *WIDER Working Paper No. 2010/106*.
7. Parteka, A., & Tamberi, M. (2013). Product diversification, relative specialization and economic development. *Journal of Macroeconomics*, 38, 121–135.
8. Santos-Paulino, A. U. (2010). Export promotion and economic diversification in developing economies. *Journal of International Commerce and Economics*, 2(1), 23–50.
9. Lederman, D., & Maloney, W. F. (2012). Does what you export matter? Washington, DC: World Bank Publications.
10. Gereffi, G., & Fernandez-Stark, K. (2016). *Global value chain analysis: A primer*. Duke University, Center on Globalization and Competitiveness.
11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2024-yil). Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yillik hisobot. Toshkent.
12. "O'zbekeksport" eksport sug'urtasi kompaniyasi. (2023-yil). Eksport sug'urtasi mexanizmlari va amaliy natijalar. Toshkent.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024-yil). Banklar tomonidan eksportni moliyalashtirish ko'rsatkichlari. Rasmiy axborotnomalar.
14. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024-yil). Tashqi savdo statistik to'plami. Toshkent.
15. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi. (2023-yil). Foiz stavkasi subsidiyalari bo'yicha joriy yillik hisobot. Toshkent.
16. G'aliev T. (2025-yil). *Iqtisodiyot nazariyasi: O'quv qo'llanma*. Toshkent, 117-bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>